



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
KRIMINOLOGIYA TADQIQOT INSTITUTI**

KRIMINOLOGIYA YANGILIKLARI
ILMIY MAQOLALAR VA TEZISLAR TO'PLAMI



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
KRIMINOLOGIYA TADQIQOT INSTITUTI**

KRIMINOLOGIYA YANGILIKLARI

Ilmiy maqolalar va tezislar to‘plami

Toshkent – 2026

*O'zbekiston Respublikasi Kriminologiya tadqiqot instituti kengashining yig'ilishida muhokama qilingan
hamda nashrga tavsiya etilgan.*

Mas'ul muharrir

O'zbekiston Respublikasi Kriminologiya tadqiqot instituti boshlig'i o'rinbosari, yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD) **Sh.O. Azim**

Taqrizchilar:

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti professori, siyosiy fanlar doktori,
professor **I. Ergashev;**

O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi akademiyasi professori, yuridik fanlar doktori,
professor **A.G. Zakirova**

Nashrga tayyorlovchilar:

tibbiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) **I.E. To'raev;**

falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent **Sh.Sh. Hasanov;**

yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD) **U.A. Irisbekov**

Kriminologiya yangiliklari: Ilmiy maqolalar va tezislar to'plami / Mas'ul muharrir yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD) Sh.O. Azim. – T.: O'zbekiston Respublikasi Kriminologiya tadqiqot instituti, 2026. – 160 b.

Mazkur to'plamda zamonaviy kriminologiya nuqtai nazaridan jinoyatchilikka qarshi kurashning dolzarb masalalari yoritilgan bo'lib, sodir etilayotgan jinoyatlarning kriminologik tavsifi, ularning kelib chiqish omillari, jinoyatchilikning oldini olish va fosh etishda yuzaga kelayotgan muammolar, shuningdek, xorijiy davlatlarning ilg'or tajribalari va ularni milliy amaliyotga tatbiq etish imkoniyatlari ilmiy va amaliy jihatdan tahlil qilingan.

To'plam huquq-tartibot organlari ta'lim muassasalarining professor-o'qituvchilari, olimlar, tadqiqotchilar va amaliyot xodimlari, mustaqil izlanuvchilar, talabalar hamda kursantlar uchun mo'ljallangan.

Mazkur *Ilmiy to'plam* O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 15-yanvardagi PQ-22-son qarori ijrosi doirasida tayyorlandi.

Maqola va tezislarining mazmuni hamda faktlarning to'g'riligi uchun mualliflar mas'uldir.

KIRISH SO‘ZI

Zamonaviy dunyoda global o‘zgarishlar hamda ijtimoiy munosabatlarning raqamlashuvi jinoyatchilik qiyofasini tubdan o‘zgartirib, kriminologiya fani oldiga mutlaqo yangidan-yangi vazifalarni qo‘ymoqda. Bu esa nazariyotchi olimlardan sodir etilishi hamda chetdan kirib kelishi mumkin bo‘lgan jinoyatlarni prognoz qilish, shuningdek sodir etilgan jinoyatlarning omillarini ilmiy asosda o‘rganish va ularning barvaqt oldini olishga doir asoslangan ilmiy konsepsiyalar ishlab chiqishni talab etmoqda

Mazkur “Kriminologiya yangiliklari” ilmiy to‘plamida sohadagi nazariy izlanishlarni amaliyot bilan bog‘lovchi, yurtimizda jinoyatchilikni oldini olishning ilmiy asoslangan tizimini yaratishga qaratilgan ilmiy maqolalar jamlangan. Davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev ta’kidlaganidek, “Jinoyatchilikning oqibatlari bilan kurashish emas, balki uning barvaqt oldini olish – asosiy vazifamiz bo‘lishi shart”. Mazkur konseptual g‘oya to‘plamdan o‘rin olgan barcha tadqiqotlarning bosh mezoni etib belgilandi.

Bugungi kunda jinoyatchilik nafaqat huquqiy, balki chuqur ijtimoiy, iqtisodiy va psixologik omillarga ega bo‘lgan murakkab muammoga aylanib bormoqda. Shu sababli, to‘plamda jinoyatchilik sabablari, ya’ni uni keltirib chiqaruvchi omillarni tizimli tahlil qilishga alohida e’tibor qaratilgan. To‘plamdan joy olgan ilmiy maqolalarda, an’anaviy kriminologik yondashuvlar bilan bir qatorda, “raqamli kriminologiya” va “sun’iy intellekt yordamida profilaktika qilish” kabi zamonaviy yo‘nalishlar ham keng yoritilgan. Raqamli makonda sodir etilayotgan firibgarliklar, kiberhujum va axborot xurujlarining oldini olish nafaqat texnik, balki kriminologik jihatdan ham yangicha profilaktik mexanizmlarni talab qiladi. Mualliflar tomonidan huquqni muhofaza qiluvchi organlar faoliyatiga sun’iy intellekt orqali jinoyatlarni prognoz qilish samaradorligini oshirishga qaratilgan takliflar bildirilgan.

Shuningdek, Prezidentimiz tomonidan ilgari surilgan “mahallabay” ishlash tizimining kriminologik jihatlari, “xavfsiz mahalla” tamoyili asosida huquqbuzarliklarni jilovlash masalalari ilmiy maqolalarda o‘z aksini topgan. Bunda jamoatchilik nazoratini kuchaytirish, fuqarolik jamiyati institutlarining profilaktika tizimidagi rolini oshirish va aholining huquqiy madaniyatini yuksaltirishning yangi metodologiyalari ham taklif etilgan.

To'plamda viktimologik profilaktika masalalariga ham keng o'rin berilgan bo'lib, unda jinoyat qurboniga aylanish xavfini kamaytirishning ijtimoiy-psixologik omillari ochib berilgan.

Korrupsiyaga qarshi kurashish va iqtisodiy jinoyatlarning oldini olish sohasidagi tadqiqotlar esa institutsional islohotlarning ilmiy poydevori bo'lib xizmat qiladi.

Voyaga yetmaganlar va yoshlar jinoyatchiligining oldini olishda kriminologiyaning eng so'nggi yutuqlaridan foydalanish, yoshlarning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish va ularni ijtimoiy rehabilitatsiya qilish bo'yicha innovatsion konsepsiyalar maqolalarda ko'rsatib o'tilgan.

Ilmiy to'plamdagi qiyosiy-huquqiy tahlillar rivojlangan xorijiy davlatlarning ilg'or kriminologik tajribalarini milliy qonunchiligimizga singdirish imkonini beradi. Har bir ilmiy maqola va izlanish zamirida "Qonun ustuvor – jazo muqarrar" tamoyilini ta'minlash orqali fuqarolarning tinch-osuda hayotini himoya qilish maqsadi yotadi.

Mazkur nashr nafaqat nazariyotchi olimlar, balki amaliyot xodimlari uchun ham sohadagi so'nggi yangiliklardan xabardor bo'lish va murakkab muammolarga ilmiy yechim topishda asosiy qo'llanma vazifasini o'taydi. Jinoyatchilikka qarshi kurashning samaradorligi bevosita ilm-fan yutuqlariga va sohadagi yangilanishlarga bog'liq ekanligini inobatga olsak, ushbu ilmiy to'plam jamiyatda huquqiy barqarorlikni ta'minlash yo'lidagi izchil izlanishlarning munosib mevasidir. Mualliflarning innovatsion g'oyalari va ilmiy xulosalari Yangi O'zbekistonning xavfsizlik strategiyasini amalga oshirishda, jinoyatchilikdan xoli muhitni yaratishda va xalqimizning tinchligini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Ilmiy to'plamda jamlangan ma'lumotlar kriminologiya fanining rivojiga salmoqli hissa qo'shishi bilan birga, huquqbuzarliklar profilaktikasi bo'yicha milliy dasturlarni ishlab chiqishda ham qimmatli manba bo'lib xizmat qiladi.

**O'zbekiston Respublikasi Kriminologiya
tadqiqot instituti boshlig'i o'rinbosari,
yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori
(PhD)**

Sh.O. Azim

AYOLLAR JINOYATCHILIGI: IJTIMOY-PSIXOLOGIK DEFORMATSIYA VA VIKTIMOLOGIK OMILLARI

Kaxarova Munira Maxamadjanovna

*O'zbekiston Respublikasi Kriminologiya tadqiqot instituti ilmiy xodimi,
siyosiy fanlar doktori*

Annotatsiya. Mazkur maqolada O'zbekistonda jazoni ijro etish muassasalarida saqlanayotgan ayollarni ijtimoiy hayotga qaytarish bo'yicha joriy etilgan "Yangi hayot" dasturining ahamiyati tahlil qilinadi. Xotin-qizlar jinoyatchiligining asosiy negizi hisoblangan bilimsizlik va ijtimoiy qaramlik muammolarini hal etish orqali mahkumalarni jamiyatga reintegratsiya qilish, ularning kasb-hunar va masofaviy oliy ta'lim olishini ta'minlash masalalari yoritilgan. Ushbu yondashuv jazolash emas, balki inson ruhiyatini tiklash va takroriy jinoyatlarning (residiv) oldini olishning muhim omili sifatida asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: xotin-qizlar jinoyatchiligi, "Yangi hayot" dasturi, ijtimoiy rehabilitatsiya, mahkuma ayollar, kriminologik profilaktika, kasb-hunarga o'qitish, masofaviy ta'lim, ijtimoiy himoya.

Аннотация. В данной статье анализируется значение программы «Новая жизнь» (Yangi hayot), внедренной в Узбекистане для социальной реинтеграции женщин, содержащихся в учреждениях исполнения наказаний. Освещаются вопросы возвращения осужденных в общество путем решения проблем необразованности и социальной зависимости, считающихся первопричиной женской преступности, а также обеспечения их профессиональным и дистанционным высшим образованием. Данный подход обосновывается не как мера наказания, а как важный фактор восстановления человеческой психики и предотвращения повторных преступлений (рецидива).

Ключевые слова: женская преступность, программа «Новая жизнь», социальная реабилитация, осужденные женщины, криминологическая профилактика, профессиональное обучение, дистанционное образование, социальная защита.

Abstract. This article analyzes the significance of the "New Life" (Yangi hayot) program implemented in Uzbekistan, aimed at the social reintegration of women held in penal institutions. It highlights the issues of reintegrating convicts into society by addressing the problems of lack of education and social dependence, which are considered the root causes of female criminality, as well as providing them with vocational training and distance higher education. This approach is justified not as a punitive measure, but as an important factor in restoring the human psyche and preventing repeat offenses (recidivism).

Keywords: female criminality, "New Life" program, social rehabilitation, convicted women, criminological prevention, vocational training, distance education, social protection.

Ayol fenomeni insoniyat tamaddunining barcha bosqichlarida nafaqat biologik reproduksiya manbai, balki ijtimoiy barqarorlik, ma'naviy vorislik va madaniy taraqqiyotning fundamental asosi sifatida talqin etib kelingan. Ilmiy va ijtimoiy-falsafiy nuqtai nazardan qaraganda, ayol – jamiyatning demografik tuzilishini shakllantiruvchi va kelajak avlodning psixologik qiyofasini loyihalashtiruvchi asosiy subyektdir. Uning oila va jamiyatdagi o'rnini tizimli ravishda bir nechta muhim ijtimoiy maqomlar va vazifalar zanjiri orqali ifodalanadi.

Avvalo, ayolning oilaviy maqomi uning eng oliy martabasi – "onalik" instituti bilan uzviy bog'liq. Oilada ayol tarbiyachi, psixologik muhit muvozanatini saqlovchi "mediator" va ma'naviy qadriyatlarni transformatsiya qiluvchi asosiy bo'g'in vazifasini bajaradi. Ilmiy kriminologiya va sotsiologiyada oiladagi ayolning roli "xavfsizlik kafolati" sifatida ko'riladi: sog'lom ruhiy muhitga ega bo'lgan oilada ayolning mavqeyi qanchalik mustahkam bo'lsa, o'sha jamiyatda destruktiv xulq-atvor va jinoyatchilik darajasi shunchalik past bo'ladi.

Ikkinchidan, ayolning ijtimoiy-huquqiy martabasi zamonaviy dunyoda intellektual mehnat, boshqaruv va ilm-fan sohalaridagi ishtiroki bilan belgilanmoqda. Bugungi kunda ayol nafaqat xonadon bekasi, balki jamiyatning siyosiy, iqtisodiy va madaniy hayotida faol subyekt sifatida namoyon bo'lmoqda. Uning vazifasi – jamiyatda gumanizm tamoyillarini qaror toptirish, ijtimoiy adolatni ta'minlash va nizoli vaziyatlarni yumshatishdan iborat. Ilmiy tadqiqotlar shuni tasdiqlaydiki, ayollarning ijtimoiy boshqaruvdagi ishtiroki davlat va jamiyat institutlarining "yumshoq kuch" sifatida samarali ishlashiga xizmat qiladi.

Biroq, ayolning bu qadar yuksak ijtimoiy va ma'naviy mas'uliyatni o'z zimmasiga olishi uning ruhiyatiga kuchli bosim o'tkazadi. Uning zimmasiga yuklangan "ona", "rafiqa", "mutaxassis" va "jamiyat a'zosi" kabi ko'p qirrali majburiyatlar o'rtasidagi muvozanatning buzilishi turli psixologik deformatsiyalarga sabab bo'lishi mumkin. Aynan mana shu nuqtada ayol shaxsiyatini asrash, uning huquq va manfaatlarini himoya qilish masalasi davlat ahamiyatidagi strategik vazifaga aylanadi.

Shunday qilib, ayolni nafaqat shaxs, balki jamiyatning ma'naviy va huquqiy sog'lomligini ta'minlovchi indikator sifatida o'rganish lozim. Uning jinoyat yo'liga kirishi yoki ruhiy inqirozga yuz tutishi shunchaki shaxsiy fojia emas, balki yuqorida ta'kidlangan ijtimoiy martabalar va vazifalar tizimining tanazzulidir.

Ayollar jinoyatchiligi zamonaviy kriminologiyaning eng murakkab va ko'p qirrali yo'nalishlaridan biri bo'lib, u alohida yondashuvni talab etadi. Insoniyat tarixida ayol hamisha hayot davomchisi, mehr-muhabbat va barqarorlik timsoli sifatida gavdalangan. Shu sababli, ayol kishi tomonidan sodir etilgan huquqbuzarlik jamiyat uchun nafaqat qonun buzilishi, balki ma'naviy tizimning inqirozi sifatida qabul qilinadi. Biroq, chuqur

tahlillar shuni ko'rsatadiki, ayol tabiatan jinoyatga moyil bo'lmaydi; uning ijtimoiy xavfli xatti-harakatlari zamirida ko'p yillik ruhiy ezilish, ijtimoiy adolatsizlik va tizimli viktimizatsiya jarayonlari yotadi.

Jamiyatning taraqqiyoti uning eng o'jiz qatlamlariga, shu jumladan, xato qilgan insonlarga bo'lgan munosabati bilan o'lchanadi. Bugungi kunda mamlakatimizdagi jazoni ijro etish muassasalarida 2589 nafar ayol[1] turli sabablar bilan jazo muddatini o'tamoqda. Ularning aksariyatida na kasb-hunar, na oliy ma'lumot bor. Xo'sh, ular jazoni o'tab chiqqandan so'ng qanday yashaydi? O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 8-mart bayramiga bag'ishlangan tantanali marosimda aynan shu og'riqli masalani ko'tardi. Ayollar va bolalarga nisbatan zo'ravonlikka murossasiz kurashish bilan bir qatorda, jazoni o'tayotgan ayollarni ijtimoiy hayotga qaytarish maqsadida "Yangi hayot" dasturi e'lon qilindi. Quyida mahkuma ayollarning to'g'ridan-to'g'ri qamoqxonaning o'zida oliygohga kirishi va kasb egallashiga imkon beruvchi ushbu tarixiy tashabbus tafsilotlarini tahlil qilamiz.

Kriminologiya nuqtai nazaridan yondashadigan bo'lsak, jazolash tizimi faqatgina insonni jamiyatdan ajratish emas, balki uni qayta tarbiyalash va hayotga moslashtirish maskani bo'lishi shart. Ayollar tomonidan sodir etilayotgan ko'plab huquqbuzarliklarning negizida aksariyat hollarda bilimsizlik, iqtisodiy qaramlik va ijtimoiy himoyasizlik yotadi.

Statistik ma'lumotlarga murojaat qilsak, manzara yanada oydinlashadi: bugungi kunda panjara ortida jazo o'tayotgan ayollarning 1239 nafari faqat o'rta ma'lumotga ega, ularning qo'lida tayinli kasb yoki hunari yo'q. Ozodlikka chiqqandan so'ng ishsizlik va mablag'sizlik ularni yana qayta jinoyat ko'chasiga boshlamasligiga kim kafolat beradi? Aynan shu bo'shliqni to'ldirish maqsadida "Yangi hayot" dasturi doirasida aniq va manzilli mexanizmlar ishga tushirilmoqda.

"Yangi hayot" dasturining amaliy echimlari:

Mahkuma ayollarni to'laqonli jamiyat a'zosiga aylantirish uchun quyidagi uch bosqichli tizim joriy etilmoqda:

- Qisqa muddatli kasb-hunar kurslari: Ichki ishlar vazirligi, Kasbiy ta'lim agentligi hamda Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi hamkorligida mahkumalar uchun 3-6 oylik maxsus o'quv dasturlari[1] yo'lga qo'yiladi. Kursni muvaffaqiyatli tamomlagan ayollarga davlat namunasidagi sertifikatlar beriladi. Bu – ozodlikka chiqqan kundan boshlab mehnat bozorida o'z o'rnini topish uchun kalitdir.

- Qamoqxonadan turib talaba bo'lish: Eng e'tiborga molik jihati shundaki, jazo muddatini o'tayotgan ayollarning 443 nafari oliy ta'lim olish istagini bildirgan. Endilikda ular uchun muassasaning o'zida imtihon topshirish va masofaviy tarzda oliygohlarda tahsil olish imkoniyati yaratiladi.

- Ijtimoiy-moliyaviy qo'llab-quvvatlash (Foizsiz ssudalar): Ta'lim olish istagi bor, lekin shartnoma pulini to'lashga imkoni yo'q ayollar ham e'tibordan chetda qolmaydi. Kontrakt asosida o'qishga qabul qilingan mahkumalarga davlat tomonidan foizsiz

ssudalar ajratilishi belgilandi. Eng muhimi, bu mablag'ni qaytarish talabi ayol jazoni o'tab bo'lib, aniq bir ish joyiga ega bo'lganidan keyingina kuchga kiradi.

Inson xatosi uchun qonun oldida javob berishi adolat mezonidir. Biroq jazoni o'tab qaytgan ayolni jamiyat qanday kutib olishi, uning qayta qoqilmasligi uchun qanday sharoit yaratib berishi – bu butun millatning ma'naviy qiyofasini ko'rsatadi.

Ushbu ayollar ozodlikka chiqqanidan so'ng yana eski muhitga qaytmasligi uchun ularda mustahkam ruhiy iroda va hayotga bo'lgan yangicha qarashni shakllantirish lozim. “Yangi hayot” dasturi orqali berilayotgan ta'lim va kasb-hunar nafaqat ularning moddiy ehtiyojlarini qondiradi, balki ularga o'ziga bo'lgan ishonchni, ona sifatida farzandlari oldidagi mas'uliyatni va jamiyatga keraklik hissini qaytaradi.

Ayol ruhiyatining jinoiy deformatsiyasi jarayonida eng asosiy omil sifatida u yashayotgan mikro-ijtimoiy muhitdagi nosog'lom vaziyat yuzaga chiqadi. Yillar davomida davom etadigan maishiy zo'ravonlik, psixologik bosim va ayolning shaxsiyat sifatida kamsitilishi uning ichki olamida “surunkali jabrlanuvchi” sindromini shakllantiradi. Bu holatda ayol o'z hayoti va taqdiri ustidan nazoratni yo'qotadi, natijada unda frustratsiya va emotsional sovuqlashish yuzaga keladi. Kriminologiyada bu jarayonni latent viktimizatsiya deb atash mumkin, ya'ni ayol jinoyat sodir etishdan ancha oldin jamiyat va oilaning jimjit qurboniga aylanib bo'lgan bo'ladi.

Ruhiy holatning buzilishi ayollar jinoyatchiligida trigger vazifasini o'taydi. Doimiy qo'rquv va stress ostida yashagan ayolning idrokida atrof-muhit faqat xavf manbai sifatida gavalana boshlaydi. Bunday sharoitda u tomonidan sodir etiladigan agressiv harakatlar aslida hujum emas, balki “himoyaviy reaksiya” xarakteriga ega bo'ladi. Sud psixologiyasida tan olingan “kaltaklangan ayol sindromi” shundan dalolat beradiki, ayol o'ziga nisbatan qilinayotgan tizimli zulmdan qutulishning yagona yo'li sifatida jinoyatni ko'radi. Uning ichki dunyosidagi “portlash” effekti – bu yillar davomida yig'ilgan nafrat, og'riq va chorasizlikning yakuniy nuqtasidir.

Shuningdek, ayollar jinoyatchiligining determinatsiyasida ijtimoiy-iqtisodiy qaramlik ham muhim rol o'ynaydi. Moddiy jihatdan nochorlik va jamiyatda o'z o'rnini topa olmaslik ayolni ijtimoiy izolyatsiyaga uqtiradi, bu esa o'z navbatida uning axloqiy qarashlari o'zgarishiga olib keladi. Biroq, har qanday iqtisodiy sabab zamirida ham ruhiy siniqlik yotadi. Agar ayol ma'naviy va psixologik jihatdan qo'llab-quvvatlansa, u eng og'ir ijtimoiy sharoitda ham jinoyat yo'lga kirmasligi mumkin. Demak, jinoyatning asosiy ildizi – inson ruhiyatining zaharlanishidadir.

Ayollar jinoyatchiligining tarixiy genezisiga nazar tashlaydigan bo'lsak, ilk davrlardagi huquqbuzarliklar asosan maishiy va oilaviy doirada namoyon bo'lganligini ko'ramiz. Qadimgi Bobil yoki Rim huquqi manbalarida ayol jinoyati ko'pincha oila sha'niga qilingan hujum sifatida baholangan bo'lsa, O'rta asrlar Yevropasida minglab ayollar tizimli viktimizatsiya qurboni bo'lib, “sehrgarlik” kabi diniy ayblovlar ostida jazolangan. Tarixiy tahlillar shuni ko'rsatadiki, ilk davrlardagi ayollar jinoyatchiligi deyarli har doim reaktiv xarakterda bo'lgan. Ya'ni, ayol o'z-o'zidan jinoyatchiga aylanmagan, balki uzoq vaqt davomida uning huquqlari poymol etilishi, shaxsiyatining

kamsitilishi va chorasizlik holati uni keskin qadam tashlashga, masalan, jismoniy jihatdan kuchli bo'lgan erkak zulmidan qutulish uchun "zaharlash" kabi yashirin jinoyatlarga qo'l urishga majbur qilgan. Bu esa ayollar jinoyatchiligining ildizi qadim-qadimdan tizimli ruhiy bosim bilan bog'liq bo'lganini isbotlaydi.

Bugungi kunda xorijiy davlatlar bilan milliy jinoyatchilik manzarasini qiyosiy tahlil qilish kriminologiya sohasida fundamental xulosalarga kelish imkonini beradi. Xususan, ayollar jinoyatchiligining determinatsiyasi masalasida G'arb va Sharq makonida ikki xil transformatsiya kuzatilmoqda.

AQSh va Yevropa mamlakatlarida ayollarning ijtimoiy emansipatsiyasi natijasida jinoyatchilikning maskulinizatsiya va korporativ huquqbuzarliklarning ortishi kuzatilmoqda. Bu holat ilmiy adabiyotlarda F. Adlarning «Imkoniyatlar nazariyasi» bilan izohlanadi[2]. Unga ko'ra, ayollarning ijtimoiy-iqtisodiy mustaqilligi va boshqaruv tizimlariga kirib borishi, ilgari faqat erkaklar uchun xos bo'lgan davlat xizmatchilar jinoyatida ayollar ulushining ortishiga olib keldi. Bu erda ayol jinoyatchisi «ongli tavakkalchi» sifatida namoyon bo'lib, jinoyatni ijtimoiy imkoniyatlardan foydalanish yoki iqtisodiy foyda ko'rish vositasi sifatida qabul qiladi.

Bunga qarama-qarshi o'laroq, milliy muhitimizda ayol ko'pincha «majburiy jinoyatchi» qiyofasida gavdalanadi. Bizning sharoitimizda ayolning jinoyat yo'liga kirishi ko'pincha ijtimoiy-ruhiy himoyasizlik va surunkali viktimizatsiyaning yakuniy bosqichi hisoblanadi. Yu.M. Antonyan ta'kidlaganidek, ayollar jinoyatchiligi ko'p hollarda shaxsiy hayotdagi omadsizliklar, oiladagi zo'ravonlik va psixologik depressiyaga reaksiya sifatida yuzaga chiqadi[3]. Ya'ni, ayol jinoyat sodir etishdan avval jamiyat va oilaning «jimjit qurboni»ga aylanib bo'lgan bo'ladi.

Shu sababli, Skandinaviya davlatlarining (Shvetsiya, Norvegiya, Daniya) "gumanistik kriminologiya"[4] tajribasi biz uchun nihoyatda dolzarbdir. Ushbu modelning asosi – jinoyat sodir etgan ayollarni jazolashdan ko'ra, ularni ruhiy rehabilitatsiya qilish va ijtimoiy resotsializatsiya qilishga yo'naltirilgan. Bu erda N. Kristining «Og'riq chegarasi»[5] konsepsiyasi amal qiladi: jamiyat jinoyatchi ayoldan a'zo sifatida voz kechmaydi, balki uning destruktiv xulq-atvoriga sabab bo'lgan viktimologik omillarni (masalan, maishiy zo'ravonlik oqibatlarini) bartaraf etadi.

O'zbekiston sharoitida ayollar jinoyatchiligi profilaktikasi faqat ma'muriy nazorat bilan cheklanmasligi lozim. Skandinaviya modelidagi kabi ruhiy rehabilitatsiya markazlari va individual psixologik korreksiya tizimi milliy profilaktikaning strategik bo'g'ini bo'lishi kerak. Bu nafaqat jinoyatchilikni kamaytiradi, balki oila institutini va kelajak avlod tarbiyasini ham sog'lomlashtiradi.

Shuningdek, ayollar jinoyatchiligining oldini olish (profilaktikasi) o'zining murakkabligi va nozikligi bilan boshqa turdagi jinoyatlardan farq qiladi. Bugungi kunda bu borada mavjud bo'lgan asosiy muammolarni ilmiy-amaliy jihatdan quyidagicha tahlil qilish mumkin:

Birinchidan, viktimologik profilaktika mexanizmlarining sustligi va latentlik darajasining yuqoriligi. Ayollar tomonidan sodir etiladigan jinoyatlarning aksariyati

uzoq yillik maishiy zo‘ravonlik va ruhiy bosimning yakuniy natijasidir. Biroq, jamiyatdagi “oila sirini ko‘chaga chiqarmaslik” kabi stereotiplar tufayli ayolning jabrlanuvchi sifatidagi holati huquqni muhofaza qilish organlari nazaridan chetda qoladi. Natijada, profilaktika ishlari ayol jinoyat sodir etganidan keyingina boshlanadi, vaholanki, uning “jabrlanuvchi”lik bosqichidayoq yordam berish jinoyatning oldini olgan bo‘lar edi.

Ikkinchidan, ixtisoslashgan psixologik reabilitatsiya va korreksiya tizimining etishmasligi. Ayollar jinoyatchiligi ko‘pincha emotsional inqiroz va surunkali depressiya mahsulidir. Bugungi kunda profilaktika ishlari ko‘proq moddiy yordam berish yoki bandlikni ta‘minlash bilan cheklanib qolmoqda. Ammo ayolning ichki ruhiy jarohatlari va destruktiv fikrlash tarzi bilan professional psixologlar va viktimologlar tizimli shug‘ullanmayotgani sababli, jinoiy xavf saqlanib qolmoqda.

Uchinchidan, ijtimoiy stigmatizatsiya va “tamg‘a bosish” muammosi. Jinoyat sodir etishga moyilligi bor yoki engil huquqbuzarlik qilgan ayollarga nisbatan jamiyatning salbiy munosabati ularni ijtimoiy izolyatsiyaga yo‘naltiradi. Ayol kishi o‘zi duch kelgan zulm yoki muammoni ochiq aytishdan qo‘rqadi, chunki atrofdagilarning ta‘nasi va ayblovlaridan hayiqadi. Bunday yakkalanish ayolni jinoiy muhitga yanada yaqinlashtiradi va qayta jinoyat sodir etish xavfini oshiradi.

To‘rtinchidan, iqtisodiy qaramlik va moliyaviy savodxonlikning pastligi. Ko‘p hollarda iqtisodiy jinoyatlar (firibgarlik, o‘zganing mulkini o‘zlashtirish) ayolning moddiy jihatdan nochorligi va moliyaviy qarorlar qabul qilishda bilimsizligi oqibatida yuzaga keladi. Profilaktika ishlarida ayollarni nafaqat ishga joylashtirish, balki ularda mustaqil tadbirkorlik ko‘nikmalarini shakllantirish va iqtisodiy erkinlikka erishtirish borasida yaxlit tizim yo‘qligi asosiy to‘siq bo‘lib qolmoqda.

Beshinchidan, jazoni ijro etish muassasalaridan qaytgan ayollarni resotsializatsiya qilishdagi qiyinchiliklar. Ozodlikdan mahrum qilish joylaridan qaytgan ayollarni jamiyatga qayta moslashtirish jarayonida ular ko‘pincha oilasi va yaqinlarining rad etishiga duch keladilar. Uy-joy muammosi, ishga kirishdagi to‘siqlar va ma‘naviy yolg‘izlik ayolni chorasizlikdan yana jinoyat yo‘liga kirishga majbur qiladi. Xorijiy davlatlardagi “adaptatsiya markazlari” tajribasini milliy qonunchilikka to‘laqonli tatbiq etish hamon dolzarb bo‘lib qolmoqda.

Muammolarni bartaraf etish va ayollar jinoyatchiligi profilaktikasi samaradorligini oshirish maqsadida quyidagi tizimli takliflarni ilgari surish maqsadga muvofiqdir:

Birinchidan, xotin-qizlarning viktimologik holatini monitoring qilish bo‘yicha “Individual viktimologik kartalar” tizimini joriy etish lozim. Ushbu taklifning mohiyati shundaki, huquqni muhofaza qilish organlari va mahalla fuqarolar yig‘inlari huzurida zo‘ravonlikka uchragan yoki og‘ir ijtimoiy vaziyatda qolgan ayollarning elektron ma‘lumotlar bazasi yaratiladi. Bu kartada nafaqat shaxsning ijtimoiy holati, balki uning ruhiy barqarorlik darajasi, ilgari sodir etilgan zo‘ravonlik holatlari va ularning takrorlanish xavfi qayd etib boriladi. Bunday tizim ayolni jinoyat sodir etish

darajasigacha olib keladigan «kriminologik zanjir»ni erta aniqlash va individual profilaktik choralarini vaqtida qo‘llash imkonini beradi.

Ikkinchidan, ayollar bilan ishlashda “Multidissiplinar yondashuv”ni tizimli yo‘lga qo‘yish va “Mobil profilaktik guruhlar” faoliyatini kengaytirish zarur. Profilaktika ishlari faqat huquqbuzarlikning huquqiy oqibatlarini tushuntirish bilan cheklanib qolmasligi kerak. Har bir muammoli ayol bilan kompleks tarzda ishlovchi, tarkibida ichki ishlar xodimi, professional psixolog, malakali huquqshunos va ijtimoiy xodim bo‘lgan mutaxassislar jamoasi shakllantirilishi lozim. Bunda psixolog ayolning ruhiy jarohatlarini davolash bilan shug‘ullansa, huquqshunos uning mulkiy va oilaviy huquqlarini himoya qiladi, ijtimoiy xodim esa uning bandligi va jamiyatga moslashuvini nazorat qiladi.

Uchinchidan, jazoni o‘tab qaytgan ayollar uchun ixtisoslashgan “Ijtimoiy adaptatsiya va resotsializatsiya markazlari” tarmog‘ini kengaytirish va ularning faoliyat ko‘lamini oshirish talab etiladi. Mazkur markazlar nafaqat vaqtinchalik boshpana vazifasini o‘tashi, balki ayollarni kasb-hunarga o‘rgatuvchi, ularning moliyaviy savodxonligini oshiruvchi va tadbirkorlikka yo‘naltiruvchi inkubator rolini ijro etishi kerak. Bu erda asosiy e‘tibor ayolning ijtimoiy izolyatsiyasini bartaraf etishga qaratiladi. Shuningdek, jazoni o‘tab qaytgan ayollarni ishga qabul qilgan tadbirkorlik subyektlari uchun soliq imtiyozlari yoki ijtimoiy preferensiyalar tizimini joriy etish takroriy jinoyatchilikning oldini olishda muhim omil bo‘ladi.

To‘rtinchidan, xotin-qizlar o‘rtasida “Raqamli huquqiy savodxonlik” va “Viktimologik xavfsizlik” mavzularida tizimli ta’lim loyihalarini amalga oshirish maqsadga muvofiq. Bugungi kunda kibermakonda ayollarni firibgarlik yoki shantaj qurboniga aylantirish holatlari ko‘paymoqda, bu esa o‘z navbatida ayolni reaktiv jinoyatlarga undaydi. Shu bois, ayollarda kriminogen vaziyatlarni baholash va ulardan huquqiy yo‘l bilan chiqib ketish ko‘nikmalarini shakllantirish lozim.

Beshinchidan, sud-psixologik ekspertizasi amaliyotiga “Surunkali viktimizatsiya” faktorini majburiy baholash tartibini kiritish taklif etiladi. Ayollar tomonidan sodir etilgan jinoyat ishlarini ko‘rib chiqishda, sud jarayonida ayolning uzoq yillar davomida ruhiy va jismoniy zo‘ravonlik ostida yashaganligini aniqlash majburiy tartibda o‘rganilishi kerak. Bu holat nafaqat jazoni engillashtiruvchi holat, balki jinoyatning asl sababini ochib beruvchi muhim huquqiy dalil sifatida qabul qilinishi lozim.

Xulosa o‘rnida ta’kidlash joizki, ayollar jinoyatchiligiga qarshi kurash faqat jazo choralari kuchaytirish bilan samara bermaydi. Bu muammoni hal etish uchun jamiyatda “viktimologik profilaktika” tizimini kuchaytirish, ya’ni ayolni jinoyat sodir etish darajasigacha olib keladigan ijtimoiy-ruhiy bosimlarni vaqtida aniqlash va bartaraf etish lozim. Ayolning ruhiy salomatligi – bu sog‘lom oila va barqaror jamiyat garovidir. Jinoyat sodir etgan ayolga nisbatan huquqiy baho berishda uning o‘tmishidagi ruhiy jarohatlar va surunkali bosim zanjirini hisobga olish adolat mezonlariga to‘la mos keladi.

Ayollar jinoyatchiligi muammosini kriminologik, psixologik va qiyosiy-huquqiy jihatdan tadqiq etish shuni ko'rsatadiki, mazkur fenomen shunchaki huquqiy normalarning buzilishi emas, balki jamiyatning ma'naviy-ijtimoiy sog'lomligini belgilovchi o'ziga xos indikatoridir. Tadqiqot davomida aniqlandiki, ayol tabiatan jinoyatga moyil subyekt emas, balki uning destruktiv xulq-atvori zamirida ko'p yillik tizimli viktimizatsiya, surunkali ruhiy bosim va ijtimoiy himoyasizlik omillari yotadi.

Shuningdek, ayollar jinoyatchiligiga qarshi kurash strategiyasi insonparvarlik va ijtimoiy adolat tamoyillariga asoslanishi kerak. Sud va tergov amaliyotida ayolning jinoyatgacha bo'lgan "azoblar zanjiri"ga huquqiy baho berish, jazoni o'tab qaytgan xotin-qizlarni jamiyatga resotsializatsiya qilish mexanizmlarini takomillashtirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishi bo'lib qolishi lozim. Zero, ayolni asrash – oilani, demakki, butun jamiyatni asrash demakdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Xalqaro xotin-qizlar kuniga bag'ishlangan tantanali marosimdagi nutqi (2026-yil 6-mart). <https://president.uz/uz/lists/view/9002/>
2. Adler, F. (1975). *Sisters in Crime: The Rise of the New Female Criminal*. McGraw-Hill.
3. Simon, R. J. (1975). *Women and Crime*.
3. Антонян Ю.М. Преступность среди женщин. – Москва: Лотос,1992.
4. Lappi-Seppälä, T. (2007). *Penal Policy in Scandinavia*. *Crime and Justice*.
5. Christie, N. (1981). *Limits to Pain*. Martin Robertson.

MUNDARIJA

Kirish soʻzi	3
Матчанов А.А. Киберпреступность в эпоху цифровой трансформации: новые проблемы криминологии	5
Найитов Н.Ш. Odam savdosiga qarshi kurashning xalqaro-huquqiy va kriminologik asoslari	12
Кахарова М.М. Ayollar jinoyatchiligi: ijtimoiy-psixologik deformatsiya va viktimologik omillari	19
Qilichev X.M. Fuqarolar yigʻinlari ishtirokidagi shartnomalarni oʻzgartirish va bekor qilishning fuqarolik-huquqiy asoslari hamda amaliy muammolari	27
Hasanov Sh.Sh. Kiberxavfsizlikning profilaktikasi toʻgʻrisida ayrim mulohazalar	38
Irisbekov U.A. Tovlamachilik sodir etganlarning kriminologik va undan jabrlanganlarning viktimologik tavsifi	51
Mirzatillayev U.I. Voyaga yetmaganlar jinoyatchiligining oldini olish va huquqbuzarliklar profilaktikasining huquqiy asoslari	60
Nazarova L.G. Ayollar jinoyatchiligini oʻziga xos jihatlari va kriminologik tavsifi	67
Toʻrayev I.E., Esanov. D.I. Jinoyat ishlari yuzasidan bank sirini olishda elektron sanksiya berish tizimini joriy etishning dolzarbligi	71
Aliyev M.A. Raqamli viktimologiya: kibermakonda jabrlanuvchilar xulq-atvorining ilmiy-nazariy tahlili	80
Bahodirov Oʻ.B. Oʻzlashtirish yoki rastrata yoʻli bilan talon-toroj qilish jinoyati va uni tergov qilish metodikasi	86
Mirzaxodjayev D.A. Giyohvandlik vositalari, ularning analoglari yoki psixotrop moddalarni oʻtkazish maqsadini koʻzlab qonunga xilof ravishda tayyorlash, olish, saqlash tushunchasining huquqiy tahlili	92
Максудов X.X. Криминологические особенности прокурорского надзора в предупреждении незаконного оборота наркотических средств	97
Хоʻjamatova Н. Bolalarni zoʻravonlikdan himoya qilishda oilaning oʻrni va ahamiyati	104
Джурабаев Р.Т. Криминологическая детерминация тактики задержания лиц, находящихся в розыске за совершенное преступление.....	111
Abdugapparov A.A. Voyaga yetmaganlarning huquqiy tarbiyasida huquqni muhofaza qilish amaliyotining roli	117
Salimov Sh.Sh. Jinoyatchilikni oldini olishda mahalla “yettiligi”ning ahamiyati	127
Nimatov Sh.N. Voyaga yetmaganlar tomonidan sodir etiladigan oʻgʻirlik jinoyatlari profilaktikasi: huquqiy va tashkiliy jihatlar	133
Xamidov A.A. Jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishning huquqiy tavsifi va oʻziga xos xususiyatlari	142
Ibragimov Sh.A. Profilaktika inspektorining maʼmuriy nazorat faoliyati	154

Kriminologiya yangiliklari: Ilmiy maqolalar va tezislar to‘plami / Mas’ul muharrir yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD) Sh.O. Azim. – T.: O‘zbekiston Respublikasi Kriminologiya tadqiqot instituti, 2026. – 160 b.

Muharrirlar: B.A. Yarov, G.T. Muminova

O‘zbekiston Respublikasi Kriminologiya tadqiqot instituti,
100187, Tos’hkent s’h., Buyuk ipak yo‘li ko‘chasi, 243.